

"O'zkiyosanoat" AJ ishchi guruhi og'ir toifaga kiritilgan mahallalarda o'rganish ishlarini olib bordi

// 20.06.2025

<https://www.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-ishchi-guruhi-og-ir-toifaga-kiritilgan-mah>



Prezidentimizning "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-330-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan birlashtirilgan hududlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.



Joriy kunlarda Jamiyat ishchi guruhi Farg'ona viloyati Yozyovon tumanidagi og'ir toifaga kiritilgan "Suvliariq", "Yangiobod" va "Ishtirxon", Marg'ilon shahridagi "Xo'ja Porso" mahallalarida o'rganish ishlarini olib bordi.



Tashrif davomida mazkur mahallalarda aholining ish bilan bandligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, shuningdek, infratuzilmaviy loyihalar — ariqlarni betonlashtirish, elektr tarmoqlarini yangilash va boshqa muhim yo'nalishlar bo'yicha bajarilgan ishlar o'rganildi. Jumladan, mahallalardagi muhtoj oilalarni kambag'allikdan chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan tashabbuslar va chora-tadbirlarning samaradorligi monitoring qilindi.



"O'zkiyosanoat" AJ mazkur hududlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada samarali va tizimli tashkil etishda hamkorlikni davom ettiradi.



"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati